

**VETERINARIYA ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD 06/29.10.2021.V.139.01 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

VETERINARIYA ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

SAIDOV AKMALJON AKRAMOVICH

**HAYVONLAR BRUTSELLYOZINING DIAGNOSTIKA VOSITALARINI
TAKOMILLASHTIRISH**

**16.00.03 – Veterinariya mikrobiologiyasi, virusologiyasi, epizootologiyasi, mikologiyasi,
mikotoksikologiyasi va immunologiyasi**

**VETERINARIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Samarqand – 2024

**Veterinariya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по ветеринарным наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on veterinary sciences**

Saidov Akmaljon Akramovich

Hayvonlar brutsellyozining diagnostika vositalarini takomillashtirish.....3

Саидов Акмалжон Акрамович

Совершенствование средств диагностики бруцеллеза животных 21

Saidov Akmaljon Akramovich

Improvement of diagnostic tools for animal brucellosis..... 41

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 45

**VETERINARIYA ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD 06/29.10.2021.V.139.01 RAQAMLI ILMIY
KENGASH
VETERINARIYA ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI**

SAIDOV AKMALJON AKRAMOVICH

**HAYVONLAR BRUTSELLYOZINING DIAGNOSTIKA VOSITALARINI
TAKOMILLASHTIRISH**

**16.00.03 – Veterinariya mikrobiologiyasi, virusologiyasi, epizootologiyasi, mikologiyasi,
mikotoksikologiyasi va immunologiyasi**

Veterinariya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Samarqand – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/V98 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Veterinariya ilmiy-tadqiqot institutida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengash veb-sahifasi (www.viti.uz) va «ZiyoNet» axborot ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Ruzimurodov Muxiddin Axrorovich**
veterinariya fanlari nomzodi, professor

Rasmiy opponentlar: **Xamdamov Xabibulo Ablokulovich**
veterinariya fanlari doktori, professor

Mamatova Zamira Baratovna
veterinariya fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot: **Toshkent Davlat Agrar universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Veterinariya ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD 06/29.10.2021.V.139.01 raqamli ilmiy Kengashning 2024 yil _____ soat _____ majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 141500, Samarqand viloyati, Toyloq tumani, Charog‘bon MFY, Yangi Toyloq 1 qishlog‘i 67 uy. Tel.: (+9966) 666 56 30; faks: (+9966) 666-56-76; e-mail: nivi@vetgov.uz)

Dissertatsiya bilan Veterinariya ilmiy-tadqiqot instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ - raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 141500, Samarqand viloyati, Toyloq tumani, Charog‘bon MFY, Yangi Toyloq 1 qishlog‘i 67 uy. Tel.: (+9966) 666 56 30; faks: (+9966) 666-56-76.

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil “_____” _____ kuni tarqatildi.
(2024 yil “_____” _____ dagi _____-raqamli reestr bayonnomasi)

B.A.Elmuurodov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
vet.fan doktori, professor

F.S.Pulotov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy
kotibi, vet.f.f.d., katta ilmiy xodim

G.X.Mamadullayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, vet.fan
doktori, katta ilmiy xodim

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi).

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda dunyoda brutsellyoz kasalligi bo'yicha epizootik va epidemiologik vaziyat bir muncha keskin va bu borada vaziyat anchagina murakkabligicha qolmoqda. Epizootik vaziyatning keskinlashuv tendensiyasi Markaziy Osiyoning barcha davlatlarida kuzatilmoqda. Ayrim hududlarda chorvachilikda brutsellyoz kasalligi bo'yicha nosog'lom epizootik holat kasallikka qarshi olib borilayotgan chora-tadbirlar, jumladan: diagnostik tadqiqotlar, maxsus profilaktika, veterinariya-sanitariya me'yorlari va qoidalariga rioya etilmasligi natijasida yuzaga keladi. Bunday qoida buzilishi va yo'l qo'yilgan kamchiliklar hayvonlar va odamlar orasida brutsellyozni keng tarqalishining asosiy sabablari hisoblanadi. Bu o'z navbatida chorvachilik sohasida katta iqtisodiy yo'qotishlarga va ijtimoiy oqibatlariga olib keladi.

Dunyoda brutsellyozga qarshi kurashning ikkita asosiy tizimi (yoki hozirda dasturlar deb ataladi) mavjud. «Bir tizimda emlash va diagnostikadan foydalaniladi, bunday dastur bo'yicha sog'lomlashtirish samaradorligi ko'pincha juda past. Boshqa tizimda esa emlash butunlay taqiqlanadi va faqat diagnostika (odatda serologik) qo'llaniladi. Bu birinchi tizimga qaraganda ancha samaralidir, chunki bu tizim ma'lum hududlar va mamlakatlarda brutsellyozni to'liq yo'q qilishga imkon beradi»¹. Biroq, ushbu dasturlarni amalga oshirish uchun yetarli miqdordagi diagnostikumlar zarur bo'lib, mamlakatdagi barcha chorva hayvonlarini diagnostika tekshirishlari bilan to'liq qamrab olishi zarur.

Respublikamizda veterinariya dori vositalari, jumladan, vaksinalar, diagnostika vositalari va reagentlarini sanoat usulida ishlab chiqarilishi mavjud ehtiyojni qoplamaydi. Mamlakatimizda hayvonlar kasalliklariga tashxis qo'yish bilan shug'ullanuvchi 145 ga yaqin diagnostika markazlari hamda 265 dan ortiq veterinariya-sanitariya ekspertiza laboratoriyalari mavjud bo'lib, ularning barchasi reaktivlar va diagnostika to'plamlari bilan to'liq ta'minlanmagan.

Mazkur dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»² PF-60-sonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasini tomonidan qator Farmon va qarorlar, jumladan: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 25-noyabrdagi PQ-4899-sonli «Biotexnologiyalarni rivojlantirish va mamlakatning biologik xavfsizligini ta'minlash tizimini takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida»³, Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-iyuldagi 564-sonli «Veterinariya dori vositalari ishlab chiqarishni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»⁴ farmon va qarorlari hamda sohaga doir boshqa huquqiy-me'yoriy hujjatlarda o'z aksini topib, ularda belgilangan vazifalarni amalga

¹ Игнатов П.Е. Некоторые аспекты патогенности бруцелл. – Новочеркасск. – 1994. – С. 66–74.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2022-2026 Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PQ-60-son Farmoni.

³ LEX.UZ <https://lex.uz>. O'zR Prezidentining 2020-yil 25-noyabrdagi PQ-4899-sonli qarori

⁴ LEX.UZ <https://lex.uz>. O'zR Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-iyuldagi 564-sonli qarori

oshirishda ushbu dissertatsiya doirasidagi tadqiqotlar ham muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotlarning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishining V. «Qishloq xo'jaligi biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Butun dunyoda bo'lgani kabi O'zbekistonda ham hayvonlarning brutsellyoz kasalligini aniqlash kompleks tarzda amalga oshiriladi.

Vujudga kelgan iqtisodiy qiyinchiliklar, xususiyl xo'jaliklardagi hayvonlar ustidan veterinariya-sanitariya nazoratining susayishi brutsellyoz kasalligi bo'yicha vaziyatning yanada keskinlashuviga sabab bo'ladi.

Bugungi kunda, xorijiy olimlar S.N.Vishelesskiy, P.F.Zdrodovski, P.A.Vershilova, K.P.Studensov, P.S.Ulasevich, P.A.Trilenko, S.N.Nevskiy, K.V.Shumilov, O.D.Sklyarov, J.Alton, Nicoletti, Rayt, Sempl, Smith, Alberg, J.Godfroid, M.Leypke, J.Blasko va boshqalar, o'zbek olimlari V.K.Grinko, M.A.Abidjanov, R.G.Yaraev, M.S.Mirzaeva, X.S.Salimov, X.A.Xamdamov, M.A.Ruzimurodov va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida brutsellyozning epizootologiyasi, patogenezini, diagnostikasi, immuniteti, maxsus profilaktikasining asosiy savollari o'rganilgan.

Bu usullar O'zbekistonda joriy qilingan bo'lsa-da, Respublikada asosiy muammo bu reaksiyalarda qo'llaniladigan va nazorat qilish uchun standart reagentlarning yo'qligi hisoblanadi. Reagentlarning barcha komponentlari kam miqdorda xorijdan keltirilib, unga katta mablag' sarflanmoqda. Veterinariya ilmiy-tadqiqot institutida 2007-2023-yillarda RBT, AR, KBR, KUBR, XR uchun asosiy brutsellyoz antigenlari ishlab chiqarilib, veterinariya amaliyotiga joriy qilinganligiga qaramasdan, ulardan brutsellyoz va boshqa o'ta xavfli infeksiyalar uchun zarur bo'lgan komplement, gemolizin, standart diagnostik zardoblar va boshqa komponentlar kabi reaktivlarning yetishmasligi tufayli zaruriy diagnostika tadbirlarini to'liq o'tkazishning imkoni yo'qligicha qolmoqda.

Shu munosabat bilan mahalliy xomashyo va ishlab chiqarish shtammlari asosida IFT, komplement, gemolizin va diagnostik zardoblar kabi serologik reaksiyalar uchun komponentlarni mahalliy ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish maqsad qilib olingan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasida ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqotlari Veterinariya ilmiy-tadqiqot institutining №BV-A-QX-2018-19: «Hayvonlar brutsellyozini maxsus oldini olish uchun mahalliy shtammlar asosida yangi brutsellyozga qarshi vaksinani yaratish» ilmiy-amaliy loyihasi (2018-2020 yy.), O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi Hay'atining 2022-yil 31-maydagi 23-con qarori, hamda Innovatsion rivojlanish vazirligining 2022-yil 14-iyundagi 196-sonli buyrug'iga muvofiq 215/14-sonli tijoratlashtirish loyihasi asosida (2022-2023 yy), «O'zbekistonning sutchilik sohasida qo'shilgan qiymat zanjirini rivojlantirish» xalqaro loyihasi (2019-2021 yy.) va ilmiy-amaliy

davlat dasturlari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi chorvachilik sohasiga va insonlar sog'lig'iga katta zarar yetkazadigan hayvonlarning keng tarqalgan brutsellyozning epizootik va epidemik holatini tahlil qilish, yangi, mahalliy diagnostika vositalarini yaratish, ishlab chiqarish va amaliyotga tadbiq etishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Jizzax, Samarqand va Toshkent viloyatlari hududlarida aholi qaramog'idagi shaxsiy va fermer xo'jaliklariga tegishli chorva hayvonlarining brutsellyoz kasalligini va mahalliy diagnostik vositalarini qo'llash asosida epizootik holatini o'rganish;

mahalliy diagnostik qon zardoblarini yaratish uchun yuqori agglyutinogen bo'lgan ishlab chiqarish shtammini ajratib olish maqsadida seleksiya qilingan, B.abortus 104MUZ VI-biotip, B.melitensis Rev-1UZ, I-biotip va referens B.abortus 544 I-biotip (Angliya, Veybridj) hamda B.melitensis Novocherkassk-102 (Rossiya) shtammlarining kultural, morfologik, biokimyoviy, agglyutinogenlik va boshqa xususiyatlarini o'rganish va pasport ma'lumotlari bilan solishtirish;

hayvonlar brutsellyozini aniqlashda qo'llaniladigan mahalliy gemolizin, komplement, diagnostik qon zardoblar tayyorlash usullarini yaratish va standartlashtirish;

RBT, AR, KBR uchun «komplement» va «qon zardoblari» (reagentlar)ni liofilizatsiya qilish parametrlarini ishlab chiqish va laboratoriya sharoitida ularning faolligi, maxsusligi hamda barqarorligini sinab ko'rish;

mahalliy gemolizin, komplement, diagnostik qon zardoblarini tayyorlash usullarini ishlab chiqish, tajriba seriyalarini tayyorlash va ushbu reagentlarning faolligi hamda maxsusligini laboratoriya va ishlab chiqarish sharoitlarida sinovdan o'tkazish.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida Jizzax, Samarqand hamda Toshkent viloyatlari chorvachilik xo'jaliklari, fermer va aholi xo'jaliklaridagi qoramol va mayda shoxli hayvonlar, itlar va turli laboratoriya hayvonlari, patologoanatomik, serologik, immunologik tadqiqot materiallaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning predmeti sifatida dengiz cho'chqalari, quyonlar, qoramol va qo'ylarning qon ko'rsatgichlari, ichki a'zolari, brutsellalarning vaksina, referens shtammlari, brutsellyoz diagnostikumlari va oziqa muhitlaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotlarda epizootologik, klinik, bakteriologik, serologik, biokimyoviy, biotexnologik usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Ilk bor Jizzax, Toshkent va Samarqand viloyatlari chorvachilik xo'jaliklarida brutsellyoz kasalligi bo'yicha epizootik holat tahlil qilinib, mahalliy diagnostikum va reaktivlardan foydalanish asosida ularning qiyosiy tavsiflari berilgan.

O'zbekistonda birinchi marta RBT, AR, KBR va KUBR uchun mahalliy reagentlar - standart ijobiy va salbiy zardoblar, texnologiyalar transferi asosida IFT (ELISA) to'plami ishlab chiqilib, ularning maxsusligi va faolligi o'rganilgan va immunizatsiya sxemalari hamda ularni liofilizatsiya parametrlari ishlab chiqilgan.

Virulentligi har xil bo'lgan brutsellalarning turlari va shtammlarini qiyosiy o'rganish natijasida mahalliy B.abortus 104MUZ, VI-biotipi eng yuqori agglyutinogen va eng past virulent xususiyatlarga ega ekanligi aniqlangan va shundan kelib chiqib, ushbu shtamm ishlab chiqarish shtammi sifatida standart diagnostik zardoblarni tayyorlash va ishlab chiqarish uchun tanlab olingan.

Mahalliy diagnostikum va reagentlardan foydalanib o'tkazilgan kompleks serologik va bakteriologik tekshirishlarda serologik testlarda kasallikni aniqlash va nazorat uchun qo'llangan antigen va reagentlari (P/z va N/z) o'zbek analoglarining samaradorligi (RBT va AR uchun - 100 foizgacha, IFT uchun esa - 91 foizgacha) yuqoriligi aniqlangan.

Tadqiqotlarning amaliy natijasi quydagilardan iborat:

Toshkent, Samarqand va Jizzax viloyatlarida retrospektiv tahlil va xususiy tadqiqotlar asosida mahalliy diagnostika vositalaridan foydalangan holda brutsellyozning haqiqiy epizootik holati aniqlanib, alohida fermer xo'jaliklarining sog'lomlik darajasiga qarab baholangan va kasallikka qarshi chora-tadbirlarni optimallashtirish chora-tadbirlari tavsiya etilgan.

Mahalliy lashtirilgan B.abortus 104MUZ, VI-biotip ishlab chiqarish shtammiga O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligidan Foydali modelga Patent olingan (№FAP 02009, 29.06.2022) va ushbu shtamm ilk bor ishlab chiqarish shtammi sifatida joriy etilgan;

Standart diagnostik zardoblarni mahalliy B.abortus 104MUZ, VI-biotip shtammi asosida tayyorlash uchun qoramollarni giperimmunizatsiya sxemasi ishlab chiqilgan;

Hayvonlar brutsellyozini aniqlashda qo'llaniladigan gemolizin, komplement, diagnostik qon zardoblarini tayyorlash usullari ishlab chiqilgan va ularni standartlashtirish maqsadida liofilizatsiya parametrlari yaratilib, joriy qilingan;

Mahalliy diagnostik qon zardoblar, gemolizin, komplement va IFT to'plamlarini ishlab chiqarish reglamenti, Tashkilot standarti (Ts) va qo'llash bo'yicha yo'riqnomalari joriy etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchiligi o'tkazilgan tadqiqotlarning FAO/JSST tomonidan amaldagi brutsella kulturalari bilan ishlash uchun tavsiya etilgan usullaridan foydalanilganligi, birlamchi ma'lumotlarga ishlov berish va ilmiy tahlil qilish, olingan nazariy natijalarining tajriba ma'lumotlari bilan to'g'ri kelishi, tadqiqotlar natijalarining xorij va mahalliy tajribalar bilan keng ilmiy tahlil qilinganligi, tajribalar dalolatnomalarga asoslanganligi, tasdiqlangan ilmiy texnik hujjatlar, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi bilan isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati brutsella kulturalarining biologik xususiyatlarini solishtirib o'rganish, seleksiyalash natijasida mahalliy diagnostik vositalarini ishlab chiqarish uchun mahalliy shtamm ajratilganligi, diagnostik vositalari ishlab chiqarilganligi, ularni standartlashtirish uchun liofilizatsiya parametrlarini takomillashtirish, joriy etish, ularning diagnostikum sifatiga ta'sir ko'rsatgichlari va etalon shtammlari asosida veterinariya biotexnologiya faniga yangi usullarni joriy etish va bu bilan serologiyadagi diagnostik xatolarning kamayishiga erishish hamda import o'rnini

bosuvchi diagnostik vositalarini yaratilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Respublikada ilk bor mahalliy lashtirilgan B.abortus 104MUZ past virulentli shtammi asosida mahalliy standart diagnostik qon zardoblari, gemolizin, komplement hamda IFT to'plamlarini yaratilganligi va ushbu diagnostik vositalarni ishlab chiqarish reglamenti, Tashkilot standarti (Ts) va qo'llash bo'yicha yo'riqnomalarini veterinariya amaliyotiga tavsiya va joriy etilganligi bilan ifodalanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'zbekistonda hayvonlarda brutsellyoz diagnostikasi qo'yish maqsadida XEBning xalqaro tavsiyalarini inobatga olgan holda «Hayvonlar brutsellyoz kasalligining diagnostikasi bo'yicha ilmiy asoslangan TIZIM» ishlab chiqilgan va joriy etilgan. Hayvonlar brutsellyozining serologik diagnostikasini takomillashtirish bo'yicha olib borilgan ilmiy-tadqiqot natijalari asosida:

O'zbekistonda ilk bor yaratilgan "Brutsellyoz IgG-IFA" to'plami Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat Qo'mitasi tomonidan 2022-yil 28-iyulda VP-001333-22 reestr raqami bilan davlat ro'yxatiga olingan. 110 ta «Brutsellyoz IgG-IFA» to'plami ishlab chiqarilgan. Ushbu IFT to'plamlari 440,0 mln.so'mga Respublika tashxis markazlariga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining 2024-yil 18-martdagi 02/23-180-son ma'lumotnomasi). Natijada, viloyat tashxis markazlarida hayvonlar brutsellyoziga kompleks, ju jumladan, IFT orqali malakali tashxis qo'yishga erishilgan.

Samarqand Davlat Veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti olimlari ishtirokida «Методы диагностики бруцеллёза животных с использованием ИФА» uslubiy qo'llanmasi ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining 2024-yil 18-martdagi 02/23-180-son ma'lumotnomasi). Natijada universitet talabalari va veterinariya mutaxassislari uchun hayvonlar brutsellyozini diagnostikasini amaliyotda takomillashtirishga xizmat qilgan;

«Xo'jaliklarda qoramollarni parvarishlash va ularda olib boriladigan veterinariya-sanitariya tadbirlari bo'yicha qo'llanma» ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining 2024-yil 18-martdagi 02/23-180-son ma'lumotnomasi). Natijada chorvachilik yo'nalishidagi fermer va aholi shaxsiy xo'jaliklarida brutsellyozning yashirin shakllarini aniqlash imkoni ko'payshiga erishilgan.

Gemolizin, komplement reagentlari va diagnostik zardoblarni respublikada ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish - RBT hamda AR bilan bir qatorda brutsellyozning surunkali shakllarini aniqlash uchun KBR va B.ovis shtammi yoki qo'chqorlarning yuqumli epididimitiga sabab bo'ladigan brutsellyozni diagnostikasi uchun qo'llaniladigan KUBRni laboratoriya amaliyotiga joriy etish imkoniyati yaratildi (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi

huzuridagi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasining 2024-yil 18-martdagi 02/23-180-son ma‘lumotnomasi). Buning natijasida, hayvonlar brutsellyozi uchun qo‘llaniladigan diagnostik testlar ko‘lami kengaydi va kasallikning tarqalishi oldi olindi, hayvonlardan olingan chorvachilik mahsulotlarining (sut, sut mahsulotlari, go‘sht va go‘sht mahsulotlari) zararsizligi ta‘minlandi, shuningdek, insonlarning ushbu infeksiyani yuqtirib olish xavfi keskin kamaydi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur ilmiy-tadqiqot natijalari jami 10 ta ilmiy-amaliy konferensiyalarida, jumladan 5 ta xalqaro, 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 21 ta ilmiy ish chop etilgan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta, jumladan 3 tasi xorijiy va 2 tasi respublika jurnallarida, 5 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy konferensiya materiallari to‘plamlarida nashr etilgan. Olingan natijalar asosida 2 ta yo‘riqnoma, 2 ta qo‘llanma chop etilgan va 1 ta Foydali modelga patent olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, xulosalar, amaliy tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan tashkil topgan. Dissertatsiyaning hajmi 116 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI.

Dissertatsiyaning «**Kirish**» qismida tadqiqotlar mavzusining dolzarbligi va zarurati, mavzuning Respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirish ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi, dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, muammoning o‘rganilganlik holati, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi, tadqiqot maqsadi, tadqiqotlarning vazifalari, tadqiqot ob‘ekti, tadqiqot predmeti, tadqiqotlarning uslublari, tadqiqotlarning ilmiy yangiligi, tadqiqotlarning amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy qilinganligi, tadqiqot natijalarning aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Adabiyotlar sharhi**» deb nomlangan birinchi bobida brutsellyozning tavsifi, kasallikning bugungi kundagi o‘rganilganlik darajasi, epizootologiyasi (epidemiologiyasi) va dunyoda tarqalish darajasi, brutsellyozga qarshi vaksinalarning qiyosiy tavsiflari va ulardan foydalanish bilan bog‘liq muammolar, brutsellyozning maxsus profilaktikasi va brutsellyozning serologik diagnostikasi bo‘yicha ma‘lumotlar va ularning tahlili bayon etilgan.

Bugungi kunda veterinariyada brutsellyoz diagnostikasi kompleks ravishda epizootologik, klinik, patologoanotomik, serologik va bakteriolitik tekshirish usullari hamda allergik test asosida amalga oshiriladi.

Dunyoning barcha davlatlarida bo‘lgani kabi, O‘zbekistonda ham qo‘llaniladigan yuqoridagi usullarning asosiy va eng ishonchlisi hayvon tirikligidagi o‘tkaziladigan serologik diagnostika hisoblanadi. Serologiyada asosiy

reaksiyalardan bo'lgan Komplement bog'lash reaksiyasi (KBR) uchun zarur bo'lgan gemolizin va komplement komponentlarini tayyorlash usullari, brutsellyoz bo'yicha insonlar orasidagi epidemiologik vaziyat tahlili, kasallikka qarshi vaktsinalarning tavsiflari va qo'llash bilan bog'liq muammolar bo'yicha keng ko'lamli ma'lumotlar berilgan.

«**Xususiy tadqiqotlar**» nomli dissertatsiyaning ikkinchi bobida tadqiqotlarning material va uslublari bayon etilgan.

Tadqiqotlarning ob'ekti, predmeti va hajmi borasida xususiy tadqiqotlarda diagnostik vositalarni tayyorlash uchun turlari va virulentligi bilan farq qiluvchi quyidagi brutsella kulturalaridan foydalanildi, ya'ni *B.abortus* 104M UZ hozirgi kunda O'zbekistonda RBT, AR, KBR va sut xalqali reaksiyasi (XR) uchun antigenlarni tayyorlash uchun qo'llanilmoqda. *B.melitensis* Rev-1 dunyoda qo'y va echkilar brutsellyoziga qarshi vaktsina tayyorlashda tavsiya etilgan va bugungi kunda Respublikamizda *B.melitensis* Rev-1UZ shtammi mahalliyashtirilib, ishlab chiqarish etalon shtammi sifatida vaktsina tayyorlash uchun tavsiya etilgan.

Samarqand, Jizzax, Toshkent viloyatlarida 2020-2023-yillar mobaynida brutsellyoz bo'yicha epizootik vaziyatni aniqlash maqsadida ilmiy tadqiqotlar 20 ta chorvachilikka ixtisoslashtirilgan fermer xo'jaliklarida olib borildi. Ushbu xo'jaliklar va laboratoriya hayvonlaridan jami 11455 qon zardoblari viloyat tashxis markazlarida, hamda institutning Brutsellyoz laboratoriyasida RBT, AR, KBR, IFT usullarida tekshirildi. Serologik reaksiyalar natijalarini shakllantirish va qayd etish "Hayvonlar brutsellyoz kasalligining diagnostikasi bo'yicha ilmiy asoslangan Tizim» (O'zR DVQ Ilmiy-Texnik Kengashining 2018-yil 12-dekabrda №19-son bayoni bilan tasdiqlangan) hamda "Методы диагностики бруцеллёза животных с использованием ИФА" (Методическое пособие Утвержденное Учёным Советом САМИВМ, протокол №11 от 03.07.2020 г.) qo'llanmalari yordamida amalga oshirildi.

Dissertatsiyaning «**Respublikada chorva hayvonlari orasida brutsellyoz bo'yicha epizootik va epidemik vaziyat tahlili**» deb nomlangan uchinchi bobida Respublikada chorva hayvonlari orasidagi epizootik va epidemik holat tahlili va Samarqand, Jizzax va Qashqadaryo viloyatlarida fermer xo'jaliklari va aholi qaramog'idagi chorva hayvonlarini brutsellyoz bo'yicha epizootik holatini o'rganish natijalari bayon etilgan.

Rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2018-yilda aholi o'rtasida 858 ta birlamchi brutsellyoz holati rasman qayd etilgan bo'lib, 100 ming aholiga nisbatan kasallanish darajasi 1,6 ni tashkil etgan. 2017-yilda esa ushbu ko'rsatkich 844 ta holatni, kasallanish darajasi esa 2,7 ni tashkil etgan. 2022-yil oxiriga kelib birlamchi brutsellyoz bilan kasallangan 1100 dan ortiq insonlar ro'yxatga olingan.

Aholi o'rtasida brutsellyoz bilan kasallanishning mavsumiyligi asosan quyidagicha: yanvar-mart oylarida 10,0% (111 holat), aprel-avgust oylarida 54,0% (597 holat), sentabr-dekabr oylarida 13,5% (150 holat) va birinchi navbatda urug'lantirish kampaniyasi bilan bevosita bog'liq ($R > 0,05$).

Veterinariya laboratoriyalarida diagnostika asboblari va reagentlarining yetishmasligi, hayvonlarni identifikatsiya qilish va chorva migratsiyasini kuzatish dasturining yo'qligi va boshqa muammolar tufayli veterinariya laboratoriyalarida

IFT va PZR kabi ilg'or diagnostika usullarining yetarli darajada joriy etilmaganligi hayvonlar orasida brutsellyozni odamlar uchun infeksiya manbai sifatida yo'q qilishga qaratilgan epizootiyaga qarshi yetarlicha chora-tadbirlar ko'rish imkonini bermayapti.

Respublikada davlat diagnostika markazlari tomonidan so'nggi besh yil davomida o'tkazilgan seromonitoring qiyosiy natijalari va shaxsiy tadqiqotlardan olingan ma'lumotlar 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval


Respublikada 2021-2023-yillar davomida hayvonlar brutsellyozi bo'yicha o'tkazilgan seromonitoring natijalarining o'rtacha ko'rsatkichlari

Hayvon turi	Respublika bo'yicha mavjud chorva mollari umumiy bosh soni, mln.bosh	Sinovdan o'tkazildi (bosh soni)				Aniqlandi ijobiy reaksiya bergan (bosh soni)						Ijobiy reaksiya bergan hayvonlar % hisobida	
		Tashxis markazlari		VITI		Tashxis markazi	VITI (bosh)					Davl. markaz	VITI
		mln. bosh.	%	ming. bosh.	%	RBT, IFA.	RBT	AR	KBR	XR	IFT		
Qoramol	14,1	4,3	30,5	8,2	0,06	439	83	83	83	0	62	0,02	1,01
Qo'y va echki	24,1	2,3	9,5	5,1	0,02	681	93	93	93	0	104	0,04	2,04

Jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, diagnostika markazlari mutaxassislari brutsellyozni tekshirishda asosan Rozbengal va IFT testlaridan foydalanadilar. Ushbu tahlillar yordamida har yili o'rtacha 439 bosh qoramol va 681 bosh mayda shoxli brutsellyoz bilan kasallangan hayvonlar aniqlanib, bu mos ravishda 0,02 va 0,04 foizni tashkil etadi. Natijada, statistik ma'lumotlarga muvofiq, O'zbekistonda keyingi uch yil davomida har yili 4,3 mln yirik va 2,2 mln mayda shoxli hayvonlar yoki umumiy bosh sonining mos ravishda o'rtacha 35% va 10,4 foizi brutsellyozga tekshirilib, bunda ijobiy reaksiya o'rtacha 439 bosh (0,02%) qoramol va 681 bosh (0,04%) qo'ylarda aniqlandi.

2021-2023-yillarda Samarqand va Jizzax viloyatlarida qishloq xo'jaligi hayvonlari o'rtasida brutsellyoz kasalligi bo'yicha o'tkazilgan monitoring natijalariga ko'ra quyidagilar aniqlandi:

Samarqand viloyati veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmasining ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yil yakuniga viloyatda qariyb 1 million 390 ming 843 bosh qoramol va 1 million 963 ming 726 bosh mayda shoxli hayvonlar bo'lib, shundan 2019-2023-yillarda 2 mln. 57 ming 512 bosh mayda shoxli hayvonlar brutsellyozga qarshi *B.melitensis* Rev-1 shtamidan tayyorlangan vaksina bilan emlangan. Samarqand va Jizzax viloyatlari veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmalari bo'yicha emlangan hayvonlarning qoldiq immun fonini o'rganish natijalari 1-diagrammada keltirilgan.



1-diagramma. 2021-2022 yillarda Samarqand va Jizzax viloyatlarida mayda shoxli chorva hayvonlarining qoldiq immun fonining tahlil natijalari.

Dissertatsiyaning «**Hayvonlar brutsellyozini aniqlash uchun mahalliy diagnostik vositalar yaratish**» deb nomlangan to‘rtinchi bobida diagnostik vositalar yaratish maqsadida seleksiya qilingan, ishlab chiqarish va referens shtammlarining kultural, morfologik, biokimyoviy, agglyutinogenlik va boshqa xususiyatlarini o‘rganish natijalari va brutsellyozni aniqlash uchun diagnostik qon zardoblari, gemolizin, komplementni tayyorlash va standartlashtirish mezonlari, hayvonlar brutsellyozi tashxisida qo‘llaniladigan diagnostik qon zardoblari, gemolizin, komplement tayyorlash usullari va liofilizatsiya parametrlarini ishlab chiqish va standartlashtirish, laboratoriya hamda ishlab chiqarish sharoitida faollik hamda maxsuslik bo‘yicha sinash natijalari, mahalliy diagnostik qon zardoblari, komplement va gemolizin reagentlarining tajriba seriyalarining faolligi hamda maxsusligini ishlab chiqarish sharoitida sinovdan o‘tkazish, brutsellyoz diagnostikasida maxsus vositalarning (antigen va qon zardoblari) iqtisodiy samaradorligi bayon etilgan. Brutsellyoz diagnostikasida nazorat diagnostik brutsellyoz zardoblarini olish uchun ishlab chiqaruvchi sifatida 5 bosh qoramoldan foydalanildi, shundan 3 bosh urg‘ochi tanadan nativ ijobiy zardob (P/z) va 2 bosh buqadan tabiiy salbiy zardob (N/z) olish uchun foydalanildi.

Tajribada 3 bosh urg‘ochi tanalar va 2 bosh og‘irligi 250-300 kg bo‘lgan buqalarga RBT, AR va KBR kabi serologik usullar yordamida brutsellyozga qarshi antitelolar borligi tekshirildi va salbiy natija olgandan so‘ng, 3 bosh urg‘ochi tanalarga 2,5%-li yog‘li progesteron eritmasidan 5 ml hajmda yuborildi. Progesteron yuborilganidan keyin, 7-kuni barcha 3 bosh urg‘ochi tanalarga bo‘yin sohasining uchdan bir qismi teri ostiga *B.abortus* 104MUZ shtammining 80 mlrd. m.h. bo‘lgan 4 ml dozada inaktivatsiya qilingan ikki kunlik agar kulturasi yuborildi.

Immunizatsiyadan 8 kun o‘tgach, RBT ko‘rsatkichlari keskin ijobiy bo‘ldi, ammo barcha 3 bosh urg‘ochi tanalarda AR da antitelo titrlari ahamiyatsiz bo‘lib,

birinchi va ikkinchi tanalarda 100 XB/ml.ni va uchinchi tanada 200 XB/ml.ni tashkil etdi. Zardob faolligi uch marta qayta tekshirildi. Gormonal preparatni birinchi yuborishdan 15 kun o'tgach, 5 ml dozada 2,5% progesteronni yana qayta in'eksiya qilish bilan bir vaqtda, B.abortus 104MUZ shtammining faolsizlantirilgan ikki kunlik agar kulturasi avvalgiday bir xil dozasi (80 mlrd. m.h.) bilan giperimmunizatsiya o'tkazildi. Natijada, birinchi immunizatsiyadan keyin 22-24-kunlari va ikkinchi giperimmunizatsiyadan 7 kun o'tgach, barcha urg'ochi tanalarda antitelo titrlari keskin oshib, birinchisida 1:1400, ikkinchisida 1:1600 va uchinchisida yuqoriroq 1:1800 ni tashkil etdi. KBRda o'rtacha ko'rsatgichlar 40 XB/ml.ni tashkil etdi. RBT kuchli ijobiy bo'lib, 100% agglyutinatsiyaga sabab bo'ldi.

Mahalliy ishlab chiqarilgan ijobiy va salbiy zardoblarning sterilligi bo'yicha o'tkazilgan nazorat sinovlarda GPA, GPB, Kitt Tarossi kabi oziqa muhitlarida barcha kulturalar 10-12 kun davomida steril bo'lganligi aniqlandi. Shuningdek, tioglikol muhitida 8 kun davomida boshqa mikrofloralarning o'sishi kuzatilmadi.

Olingan eksperimental zardob namunalari, shuningdek, brutsella kulturalarini tipizatsiya qilishda bakteriologik tadqiqotlar uchun mo'ljallangan bo'lib, ular klassik usulda 1:25 suyultirilganda plastinkali va probirkali ARda faollik va maxsuslik uchun sinovdan o'tkazildi. Ushbu tajribada har xil tur va virulentlikka ega bo'lgan jami 30 ta brutsella shtamlari ishlatildi. Har bir shtamning ikki kunlik kulturasidan bitta petlya yuzasi o'rtacha $\sum X=1,5-2,0$ mlrd. m.h. predmet oynachasiga joylashtirildi va taxminan 0,3 ml miqdorda diagnostik zardobdan bir tomchi qo'shildi. Kuzatish vaqti 1-3 daqiqani tashkil qildi.

Tayyorlangan zardoblarning sezgirliigi va maxsusligini bakteriologik usullarda o'rganish natijalari 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval.

Brutsella kulturalarida mahalliy diagnostik zardoblar bilan tipizatsiya qilish maqsadida o'tkazilgan bakteriologik tadqiqotlar natijalari

№ t/r	Brutsella shtammlarining nomi	Tadqiqotlar soni	Plastinkali/probirkali AR da o'tkazilgan tadqiqotlar natijalari		
			STS antibrucella- abortus	P/z sinaladigan zardob	N/z sinaladi- gan zardob
<i>Nazorat (referens) shtammlar</i>					
1	<i>B. abortus 544</i>	3	+	+	-
2	<i>B.melitensis Novocherkassk 102</i>	3	+	+	-
3	<i>B.suis 1330</i>	3	+	+	-
<i>Ishlab chiqarish vaksina shtammlar</i>					
4	<i>B. abortus 104M UZ</i>	3	+	+	-
5	<i>B.melitensis Rev-1</i>	3	+	+	-
6	<i>B. abortus 19</i>	3	+	+	-
<i>Epizootik shtammlar</i>					
7	<i>B. abortus</i>	36	+	+	-
8	<i>B.melitensis</i>	36	+	+	-
JAMI		90	+	+	-

Izoh: STS – Xalqaro standart zardob; P/z – ijobiy zardob; N/z – salbiy zardob.

Natijada, mahalliy diagnostikum va reagentlardan foydalanib o'tkazilgan kompleks serologik va bakteriologik tekshirishlarda serologik testlarda kasallikni aniqlash va nazorat uchun qo'llangan antigen va reagentlarning (P/z va N/z) o'zbek analoglarining samaradorligi (RBT va RA uchun - 100 foizgacha, IFT uchun esa – 91 foizgacha) yuqoriligi aniqlandi.

Gemolizin tayyorlash jarayonida jami 30 bosh quyonlarga ko'rsatilgan sxema bo'yicha, ya'ni vena ichiga 0,25; 0,5, 0,75 ml. dozadan va chot sohasi teri ostiga 1,0; 1,25 ml dozada qo'chqor eritrotsitlarining 50%-li suspenziyasi 2 kun oralig'i bilan yuborilgandan so'ng, oxirgi in'eksiyadan 7 kun o'tgach, qon zardobi yuragidan total usulda olindi va zardobda quyon komplementini yo'q qilish maqsadida +58+60°C haroratda 30 daqiqa davomida inaktivatsiya qilindi. Shundan so'ng, steril glitserin yordamida 1:1 nisbatda konservatsiya qilinib, 100 sm³ hajmli flakonlarga quyildi. Komplement olish uchun jami 50 bosh 400-450 gramm bo'lgan sog'lom dengiz cho'chqalari ishlatildi, unda qon yurakdan steril holda olindi va xona haroratida bir soat davomida tindirildi, so'ngra zardobni ajratib bo'lgach, steril kolbaga olinib, 2 ml hajmdagi flakonlarga quyib chiqildi. Olingan gemolizin va komplementni nazorat qilish maqsadida vazelin moyi ostida 5-7 ml miqdordagi GPA, GPQ, GPJQ oziqa muhitlariga 0,3 ml gemolizin va komplement ekilib, 10 kun davomida sterillik uchun kuzatilganda, oziqa muhitlari mavjud har bir kolbalarda boshqa mikrofloralarning o'sishi kuzatilmadi. Gemolizin va komplement ekilgan barcha oziqa muhitlari +37°C ish rejimiga ega termostatda inkubatsiya qilindi va ularning sterilligi tasdiqlandi. O'tkazilgan nazorat natijalari 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval

Laboratoriya sharoitida tayyorlangan gemolizin va komplementlarning gemitizimda sifatini tekshirish natijalari

Reagentlar	Sterillik	Nazorat (gemolizin 1:100)		
		Gemolitik zardobning zararsizligi	Komplementning zararsizligi	Eritrotsitlar rezistentligi
Gemolizin	Steril	0,5	-	-
Komplement (1:20)	Steril	-	0,5	-
Fiziologik eritma		1,5	1,5	2,0
Qo'chqor eritrotsitlari (Alsiver eritmasidagi 2,5 %-li suspenziya)		0,5	0,5	0,5

Izoh: Probirkalar solingan shtativ chayqatildi va suv hammomida +37+38°C da 10 daqiqa ushlab turildi. Reaksiya natijalarini o'qish vizual tartibda xona yorug'ligida o'tkazildi.

Ushbu jadvalda keltirilgan nazorat natijalariga ko'ra, laboratoriyada ishlab chiqarilgan gemolizin va komplementning eksperimental namunalari gemotoksik va anti-komplementar xususiyatlarga ega emas, chunki ular eritrotsitlarning qarshiligiga ta'sir qilmaydi va shuning uchun eritrotsitlarning gemoliziga olib kelmaydi, ya'ni ular zararsiz hisoblanadi. Bu muhim omil hisoblanadi, chunki ijobiy va salbiy KBR ni vizual baholash ushbu ko'rsatkichlarga bog'liqdir.

Gemolizinning titrlash natijalari 1:1500 va 1:1750 bo'lgan mazkur preparatning tajriba namunalari faolligi bo'yicha Rossiyada ishlab chiqarilgan 1:1500 va 1:1750 titrli gemolizindan kam emasligi aniqlandi. Bu esa gemolizinni Respublikamizda laboratoriya sharoitida, hamda sanoat usulida mahalliy xom-ashyodan ishlab chiqarish imkoniyati mavjudligidan dalolat beradi.

Natijada, tayyorlangan gemolizinni titrlashda aniqlanishicha, uning faolligi (1:1500 va 1:1750 titrlarda) va maxsusligi Rossiyaning tijorat gemolizidan (1:1500 va 1:1750 titrlarda) qolishmasligi va mazkur reagentni respublikamizda mahalliy xom-ashyodan ishlab chiqarish imkoniyati mavjudligi isbotlandi.

VITI Brutsellyoz laboratoriyasida 50 bosh dengiz cho'chqalaridan olingan komplementning gemolitik tizimi Rossiyada ishlab chiqarilgan analog reagent bilan solishtirilganda aniqlangan titrlash natijalari 4-jadvalda keltirilgan.

4-jadval

Gemolitik tizimda «VITI» va «Shyolkovo biofabrikasi» komplementlarini qiyosiy titrlash natijalari

Komponentlar	Probirkalar raqamlari									
	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
VITI komplementi, O'zR (1:20)	0,02	0,04	0,06	0,08	0,10	0,12	0,14	0,16	0,18	0,20
«Shyolkovo» komplementi, RF (1:20)	0,02	0,04	0,06	0,08	0,10	0,12	0,14	0,16	0,18	0,20
Fiziologik eritma	0,18	0,16	0,14	0,12	0,10	0,08	0,06	0,04	0,02	-
Ikki marta ko'paytirilgan titrdagi gemolizin	0,2	0,2	0,2	0,2	0,2	0,2	0,2	0,2	0,2	0,2
2,5 foizli qo'chqor eritrotsiti suspenziyasi	0,2	0,2	0,2	0,2	0,2	0,2	0,2	0,2	0,2	0,2
Fiziologik eritma	0,4	0,4	0,4	0,4	0,4	0,4	0,4	0,4	0,4	0,4
Suv hammomi 37-38°C haroratda 10 daqiqada										
Ruxsat etilgan minimal qiymat	QG	QG	QG	TG	TG	TG	TG	TG	TG	TG
VITI komplementi, O'zR (1:20)	QG	QG	QG	TG	TG	TG	TG	TG	TG	TG
«Shyolkovo» komplementi, RF (1:20)	QG	QG	QG	TG	TG	TG	TG	TG	TG	TG

